

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li

Namangan muhandislik qurilish instituti bosh hisobchisi

eayuldashev90@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida daromadlar va xarajatlari hisobining ayrim jihatlari tadqiq etishga qaratilgan. Texnik oliy ta'lim massalari faoliyatidagi byudjet va byudjetdan tashqari daromadlari tarkibi va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim muassasasi, byudjet daromadlari, byudjetdan tashqari daromadlari, tadbirkorlik, tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatlari, asosiy faoliyat yo'nalishlari, xarajatlar.*

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА ДОХОДОВ И РАСХОДОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Юлдашов Элмурод Абдужалил угли

Главного бухгалтера Наманганского инженерно-строительного института

eayuldashev90@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются некоторые аспекты учета доходов и расходов в высших учебных заведениях. Освещена структура бюджетных и внебюджетных доходов в деятельности технических высших учебных заведений и другие виды деятельности, связанные с предпринимательством.

Ключевые слова: *высшее образовательное учреждение, доходы бюджета, внебюджетные доходы, предпринимательство, непредпринимательская деятельность, основные направления деятельности, затраты.*

SOME ASPECTS OF IMPROVING THE ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Yuldashov Elmurod Abdujalil ugli

Abstract: This article is aimed at studying some aspects of income and expenditure accounting in higher educational institutions. The structure of budget and extra-budgetary revenues in the activities of the masses of technical higher education and other activities related to entrepreneurship are highlighted.

Keywords: *higher educational institution, budget revenues, extra-budgetary revenues, entrepreneurship, non-entrepreneurial activities, main areas of activity, expenses.*

KIRISH

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida yuzaga kelgan keskin o‘zgarishlar tizimni shiddat bilan rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu tizimda ayrim muammoli vaziyatlarni bartaraf etish va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun keng qamrovli sifatni yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish hamda xorij tajribasi asosida tizimni takomillashtirishga qaratilgan yo‘nalishlarni ham ilmiy ham metodik tomondan o‘rganish hamda ularni tatbiq qilish – bugunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy mustaqillik berilishi bilan bog‘liq asosiy islohotlar boshqa sohalardagi kabi oliygohlarga qo‘shimcha mustaqillik muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, sohaning rivojlanishi davlat oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarning yana bir yangi tizimini shakllantirishga, yangi bosqichga qadam qo‘yishga va shu bilan bir qatorda mavjud rivojlanish yo‘nalishlarini yanada takomillashtirishga sabab bo‘lmoqda.

Jahonda oliy ta’lim muassasalariga oid olib borilayotgan islohotlar davlat oliy ta’lim muassasalarining daromadlari va xarajatlari hisobi yuzasidan ilmiy metodologik qarashlarni va uning moliyaviy tahlilini takomillashtirishni to‘liq qamrab olmaydi. Shuningdek, xalqaro tajribada davlat tashkilotlarini moliyaviy tahlili bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarini, yaratilgan standartlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilish bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan xalqaro standartlarga muvofiq holda asoslangan uslubiyotni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo, keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida ustuvor maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozimligini ta’kidlab o‘tdilar” [1]. Buning natijasida O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqeyi sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va

vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

So'nggi yillarda davlat oliy ta'lim tashkilotlarida sezilarli darajada o'zgarishlar yuz berdi, ayniqsa ularga moliyaviy mustaqillikning berilishi natijasida bir qator keng imkoniyatlar yaratildi. Bundan tashqari, davlat ta'lim tashkilotlarida qabul kvotalari oshirilishi uning xarajatlari va daromadlarini ham o'zgarishiga sabab bo'lgan. Shu bilan bir qatorda davlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha dasturga muvofiq, uning doirasida oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tizimli tashkillashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash borasida ham ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasalarida olinayotgan daromad va xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil qilish, ularning yangi-yangi yo'nalishlarini aniqlash, maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida moliyalashtirish byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Byudjet kodeksida byudjet va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari tarkibida byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarini shakllantirish, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantirish masalalari yoritilgan [2].

S.U.Mehmonov tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari o'rganilgan [3] bo'lsa, M.X.Saidov tadqiqotlarida oliy ta'limda moliyaviy boshqaruv va uni takomillashtirish masalalari bayon qilingan [4].

A.A.Ostonaqulovning tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish masalalari bayon qilingan [5] bo'lsa, Sh.V.G'aniyev tadqiqotlarida ta'lim tizimi misolida byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan [6].

A.S.Xojayevning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va ichki auditini takomillashtirish masalalari yoritilgan [7].

Biroq mamlakatimiz iqtisodiyotida oliy ta'lim muassasalarida daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish borasidagi bir qator masalalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan chuqurroq tadqiq qilishni talab etadi. Bu holat ham tanlangan mavzuning dolzarbligini anglatadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot metodologiyasi asosi oliy ta'lim muassasalarida daromadlar va xarajatlari buxgalteriya hisobini yuritishning me'yoriy huquqiy asoslari hisoblanadi, shuningdek tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash va talqin qilish, taqqoslash, birlashtirish va sintez qilish, modellar yaratish va umumiy xulosalar chiqarish kabi turli yondashuvlar qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha korxonalar kabi oliy ta'lim muassasalari ham yangi vaziyatlarga moslashishga va boshqarishning yangicha usullarini izlashga majbur bo'lmoqdalar. Ular tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi mustaqil bozor ishtirokchilariga aylanmoqda.

Tashkilotning imkoniyatlari cheklangan bo'lib, foyda olish uchun samarali ishlashi lozim. Daromadlar va xarajatlar oliy ta'lim muassasalarining samaradorligi, ishonchliligi va moliyaviy holatini baholashga yordam beradigan asosiy ko'rsatkichlardir.

Namangan muhandislik qurilish institutining 2020-2024-yillardagi moliyalashtirish manbalari ko'rib chiqadigan bo'lsak, u quyidagicha ekanligini ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Namangan muhandislik-qurilish institutining 2020-2024-yillardagi moliyalashtirish manbalari (ming so'm) ¹

Yillar	Byudjet mablag'lari	Byudjetdan tashqari mablag'lari	Umumiy daromadlar	Daromadlar tuzilmasi	
				Byudjet mablag'lari	Byudjetdan tashqari mablag'lari
2020	17 479 913,9	45 705 079,0	63 184 992,9	27.7%	72.3%
2021	22 661 007,4	50 593 403,7	73 254 411,1	31.0%	69.0%
2022	28 023 562,2	74 849 085,0	102 872 647,2	27.3%	72.7%
2023	55 228 092,5	76 713 964,7	131 942 057,2	41.8%	58.2%
2024	57 390 256,0	61 569 275,5	118 959 531,5	48.2%	51.8%

Yuqoridagi 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yildan yilga oliy ta'lim muassasasining byudjetdan moliyalashtirish oshib bormoqda.

¹ Oliygoch ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Bizga ma'lumki, bugungi kunda texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining daromadlari turli manbalardan keladi.

Quyida texnik oliy ta'lim muassasalari uchun xos bo'lishi mumkin bo'lgan umumiy daromad tuzilmalari va turlari bayon qilingan:

- O'qishning to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan olingan daromadlar: Ko'pgina texnik oliy ta'lim muassasalarining asosiy daromad manbai talabalardan olinadigan o'qishning to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan olinadigan daromadlari hisoblanadi. Asosiy texnik oliy o'quv yurtlarining daromad manbai sanalmoqda. Bularga muayyan dasturlar, ilmiy laboratoriyalar va boshqa xizmatlar uchun qo'shimcha to'lovlar kiradi. Bugungi kunda bu ko'rsatkichlar umumiy byudjetdan tashqari daromadlarning 85-90 foizini tashkil etadi. Lekin keyingi yillarda texnik oliy ta'lim muassasalariga talabning keskin pasayishi, talabgorlarning boshqa ta'lim yo'nalishlarini tashlashi sababli, ko'pchilik texnik ta'lim muassasalarida ayrim ta'lim yo'nalishlarining yopilishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazarda bugungi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarida talabalar kontingenti va ta'lim yo'nalishdan kelib chiqqan holda xarajatlarni hisob-kitob qilish maqsadga muvofiq.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra davlat granti asosida ta'lim olayotgan 1 nafar talabaga o'rtacha 28,0 mln.so'm, to'lov-shartnoma olayotgan talabaga esa 8,8-9,0 mln.so'm atrofida xarajat qilinmoqda. Shuning uchun ham ushbu xarajatlarni ta'lim yo'nalishlari kesimida tahlil qilish zarur, deb hisoblaymiz.

Shunday ekan kelgusida texnik oliy ta'lim muassasalarida qo'shimcha daromadlarni topish maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur bo'ladi:

- xalqaro va mahalliy loyiha grantlarida ishtirok etish hamda texnik yo'nalishlaridagi xo'jalik shartnomalarini amalga oshirish: Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot va loyihalar uchun davlat va xususiy manbalarini jalb qilish imkoniyatlari mavjud bo'lishi mumkin. Bunga asosiy tadqiqotlar, texnika-texnologiyalarni ishlab chiqish va innovatsiyalar uchun xalqaro va mahalliy grantlarni jalb qilish kiradi. Bu ko'rsatkichlar hozirgi kunda mazkur oliy ta'lim muassasalarida 3-4 %ni tashkil etmoqda. Lekin bu ko'rsatkichlarni kelgusida oshirish zarur bo'ladi;

- litsenziya va patentlarni amaliyotga joriy qilish. Asosiy texnik oliy ta'lim muassasalarida salohiyatli professor-o'qituvchilar tomonidan olingan patent va litsenziyalarni, ya'ni texnologiya, ixtiro yoki dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqarishga keng jalb qilish, asosiy professor-o'qituvchilarning daromadlarini litsenziya va patentlarni sotish orqali olishini ta'minlashdan iborat;

- ilmiy ishlanma va natijalarni tijoratlashtirish. Tadqiqot natijalarini sanoat va oliy ta'lim muassasasiga asoslangan startaplarni tashkil qilish asosida tijorat yo'nalishlaridagi daromadlarni ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, texnik oliy ta'lim muassasalariga ushbu yo'nalishlaridagi ishlarni amalga oshirish bo'yicha ta'lim

muassasasining moddiy-texnik bazasi va professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanishni nazarda tutadi;

- homiylik va xayriya mablag'lari: texnik oliy ta'lim muassasalarining sobiq bitiruvchilari, ular bilan manfaatdor tashkilotlar va korxonalarining homiylik va xayriya hissalarini orqali daromad olishlari mumkin. Ushbu ishlarni tashkil qilish bo'yicha tegishli buxgalteriya hisobidagi schyotni ochish orqali bu yo'nalishlardagi mablag'larning tahlilini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin bo'ladi;

- mavjud asbob-uskunalarini ijaraga berish: texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarini qo'shimcha daromad manbai bo'lishi mumkin bo'lgan ilmiy laboratoriya va tadqiqot uskunalarini ijaraga berish xizmatlari, turli texnik ishlarni tashkil qilish asosida qo'shimcha daromadlarni jalb qilish imkoniyatlari mavjud;

- qo'shimcha korxonalar va tashkilotlarning mutaxassislarini malakasini oshirish va o'qitishga oid o'quv kurslari va malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish. Korxonalar va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari uchun pullik o'quv kurslari va malaka oshirish dasturlarini taqdim etish asosida ularning hamkorliklarini yanada mustahkamlash, amaliy muammolarning ilmiy yechimlarini topish bilan bir qatorda qo'shimcha daromadlarni jalb qilish imkoniyatlari yaratiladi.

Shu bilan birga oliy ta'lim muassasalarida yuqoridagi daromadlar tarkibi hududga, oliy ta'lim muassasasining hajmi va holatiga, uning ixtisoslashuviga va boshqa ko'plab omillarga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Turli xil daromad manbalarini ko'paytirish va ularni birlashtirish texnik oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashi mumkin bo'ladi.

XULOSA

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Texnik oliy ta'lim muassasalarida asosiy e'tiborni to'lov shartnoma mablag'larini ko'paytirishga emas, balki oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik va ilmiy salohiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat yo'nalishlarini strategiyasini tashkil etgan holda, ularni ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

2. Keyingi yillarda texnik oliy ta'lim muassasalariga kirish bo'yicha talabning keskin pasayishi, talabgorlarning boshqa ta'lim yo'nalishlarini tashlashi sababli, ko'pchilik texnik ta'lim muassasalarida ayrim ta'lim yo'nalishlarining yopilishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazarda bugungi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarida talabalar kontingenti va ta'lim yo'nalishdan kelib chiqqan holda xarajatlarni aniq hisob-kitob qilish va ular asosida qabul qilinadigan ta'lim yo'nalishlari sonini maqbullashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

3. Shuning oliy ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlarining har biri bo'yicha hisob-kitoblar asosida zararsizlik nuqtasini aniqlashni yo'lga qo'yish zarur.

4. Xalqaro tajribalarni o'rgangan holda va jamiyatning kelgusidagi talablaridan kelib chiqqan holda yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish va ularga qabul kvotalarini sonini aniqlashtirish zarur bo'ladi. Shuning bilan bir qatorda bir qator qo'shimcha daromad keltiruvchi faoliyatlarni tizimli ravishda tashkil qilinishi, kelgusida texnik yo'nalishlardagi oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy barqarorligini oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28.12.2018. <https://www.uza.uz>

2. "O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda O'RQ-360 sonli Qonuni, <https://lex.uz/acts/2304138>

3. S.U.Mehmonov "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferat. - T.:2018.

4. M.X.Saidov Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv: O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur bo'stoni", 2011. – 432 b.

5. A.A.Ostonaqulov "Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish" monografiya. T: VNESHINVESTPROM nashriyoti, 2021, 208 bet.

6. Sh.V.G'aniyev "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta'lim tizimi misolida)" Iqt.fan.nom.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. - T.:2008.

7. A.S.Xojayev "Oliy ta'lim muassasalaridan byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va ichki auditini takomillashtirish. Iqt.fan.dok. (DSc) ilm.dar.olish uchun yozil.dis.avtoref. - T.:2023.

8. Oliygo'ha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

9. Muallif hisob-kitoblari asosida tayyorlangan.